

6/2023,
noyabr-
dekabr
(№ 00068)



HUDUD KICHIK TADBIRKORLIK SALOHİYATI NATIJAVIYLIGINI IJTIMOIY-IQTISODIY BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI

Toshaliyeva Saodat Toxirovna

Termiz davlat universiteti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

O'zbekiston. saodattoshaliyeva2004@mail.ru

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss6/a18

Annotatsiya

O'rganilayotgan mavzuning dolzarbligi kichik tadbirkorlik salohiyati natijaviyligini ijtimoiy-iqtisodiy baholash usullari va mezonlarining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini tahlil etish zarurati bilan bog'liq. Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishi jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan xodisa va jarayonlar holatini integral indekslardan foydalangan holda statistik tahlil etishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishishda maqolada statistik va nazariy tahlil usullaridan foydalanilgan bo'lib, unda Surxondaryo viloyati bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati rivojlanish darajasini baholash ko'rsatkichlari statistik tahlil qilingan, ilmiy asoslangan holda baholangan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, tadbirkorlik salohiyati, integral indekslar, tadbirkorlik faolligi, ishchanlik muhiti, soliq tushumlari, maqsadli xarajatlar, innovatsion xarajatlar, ijtimoiy samradorlik, asosiy kapitalga investitsiyalar.

МЕТОДЫ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ОЦЕНКИ И КРИТЕРИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РЕГИОНАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА

Тошалиева Саодат Тохиrowна

*Доктор философии (PhD) по экономике, Термезский государственный университет.
Узбекистан.*

Аннотация

Актуальность изучаемой темы обусловлена необходимостью оценки влияния методов и критериев социально-экономической оценки эффективности потенциала малого предпринимательства на социально-экономическое развитие территории. Целью исследования является статистический анализ состояния явлений и процессов, которые могут происходить в процессе развития малого предпринимательства в Сурхандарьинской области, с использованием интегральных индексов повышения эффективности использования предпринимательского потенциала. Для достижения этой цели в статье использованы методы статистического и теоретического анализа, в которых статистически проанализированы показатели оценки уровня развития потенциала субъектов малого предпринимательства по Сурхандарьинской области, научно обоснована оценка, разработаны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: малое предпринимательство, предпринимательский потенциал, интегрированные индексы, предпринимательская активность, предпринимательская среда,

налоговые поступления, целевые затраты, затраты на инновации, социальная эффективность, инвестиции в основной капитал.

SOCIO-ECONOMIC ASSESSMENT METHODS AND CRITERIA OF PERFORMANCE OF THE REGIONAL SMALL BUSINESS AUTHORITY

Toshaliyeva Saodat Tokhirovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Termiz State University. Uzbekistan.

Abstract


The relevance of the topic under study is due to the need to assess the impact of methods and criteria for socio-economic assessment of the effectiveness of the potential of small business on the socio-economic development of the territory. The purpose of the study is a statistical analysis of the state of phenomena and processes that may occur in the process of small business development in Surkhandarya region, using integral indices to increase the efficiency of using entrepreneurial potential. To achieve this goal, the article uses methods of statistical and theoretical analysis, in which the indicators of assessing the level of development of the potential of small businesses in Surkhandarya region are statistically analyzed, the assessment is scientifically substantiated, proposals and recommendations are developed.

Keywords: small business, entrepreneurial potential, integrated indices, entrepreneurial activity, business environment, tax revenues, target costs, innovation costs, social efficiency, investments in fixed assets

Kirish

Rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda kichik tadbirkorlik faoliyatiga iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sifatida alohida e'tibor qaratilib, uni qo'llab-quvvatlash uchun barcha sayi-harakatlar amalga oshirilmoqda. E'tiborlisi, kichik tadbirkorlik salohiyatining yuzaga chiqishi va uni oshirib borish har bir mamlakat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga bog'liq.

Kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat maqsadli dasturlari, chora-tadbirlar tizimi iqtisodiy samaradorligi va natijaviyligini baholashda kichik tadbirkorlik salohiyati holatini va rivojlanishini aks ettiruvchi integral indekslardan muhim sanaladi. Hududlarda kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholash bo'yicha yagona uslubiyat va yondashuvlar mavjud emasligi ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati, hududiy davlat dasturlari amalga qanday natija berayotganligini aniqlash imkoniyatini kamaytiradi. Kichik tadbirkorlik salohiyati holati va rivojlanishini tavsiflovchi turli darajadagi davriylik va statistik aniqlik bilan hisoblanadigan ko'rsatkichlar statistik ma'lumotlar manbalariga bog'liq holda ikki guruhga ajratish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati holati va rivojlanishini tavsiflovchi statistik ko'rsatkichlar tizimi¹

Bular obyektiv va subyektiv statistika ko'rsatkichlaridir. Obyektiv statistik ko'rsatkichlar tizimi rasmiy statistika idoralari va boshqa rasmiy tashkilotlar manbalari asosida yuritilsa, subyektiv statistik ko'rsatkichlar tizimi aholi va kichik tadbirkorlik subyektlari o'rtasida mustaqil o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga asoslanadi.

Ushbu statistik ko'rsatkichlar tizimi asosida hududning kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini baholashga imkon beruvchi mahalliy byudjet daromadlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar, ishsizlik darajasi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi tadbirkorlik faolligi, hudud aholisining kichik tadbirkorlikni qabul qilishi holati, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan soliq tushumlari, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan kichik tadbirkorlik subyektlari soni, kichik tadbirkorlik aylanmasi hajmi va boshqa ko'pgina statistik ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Aytib o'tish joizki, kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati holati va rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi yetarli darajada ko'pligi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini natijaviyligi va samaradorligini aks ettiruvchi yig'ma indikatorlar tizimini shakllantirish zaruratini vujudga keltiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Kichik tadbirkorlik rivojlanishining hududiy iqtisodiy-statistik tahlili bo'yicha xorij va MDH mamlakatlari olimlaridan R.Lukas[2], P.Romer[3], P.Min, A.Portes, S.Xavier[4], A.Chepurensko[5], S.Yegorixina[6], B.Salixov, V.Samoylov[7], Ya.Sergienko[8], E.Fiyaksel, N.Shubnyakova[9], N.Doronina[10], I.Cheplyaeva[11], O.Ponomarov[12], K. Arshakuni[13] va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

S.G'ulomov, Yo.Abdullaev, Sh.Yuldashev[14], B.Ruzmetov[15], S.Salaev, T.Do'stjanov[16], A.Yugay[17], T.Shodiev, B.Xodiev[18] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlarida kichik tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendentsiyalari va

istiqbollarni iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlashning ilmiy muammolari yoritilgan.

Kichik tadbirkorlik bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarga qaramasdan, kichik tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hududiy jihatlarini baholash va uni statistic-ekonometrik tahlil etish masalalari yetarlicha o'rganilmaganligi mazkur mavzuda chuqurlashtirilgan ilmiy-uslubiy izlanishlar amalga oshirishni taqozo etadi.

Kichik tadbirkorlikning mamlakat va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini baholashning ikki xil usuli mavjud: o'rtacha geometrik usulda hisoblanuvchi integral ko'rsatkichlar tizimi va iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli.

Bunday yondashuvlarni ko'plab ilmiy tadqiqotlarda ko'rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot ishlarida kichik tadbirkorlikning hudud ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini aniqlashda kichik tadbirkorlik rivojlanishidagi asosiy muammo va afzalliklarni baholashga imkon beruvchi turli iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanilgan. A.Ye.Kremin tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyot tadbirkorlik subyektlarining hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shgan hissasini reyting asosida baholash imkonini beradi[24].

Ayrim tadqiqotlarda kichik tadbirkorlikni hududiy rivojlanish dinamikasiga ta'sirini baholashda kichik tadbirkorlik samaradorligini baholashning ko'p omilli regression tahlil tenglamasidan foydalanilgan[25]. Lekin ushbu tadqiqotlarda kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholashga alohida e'tibor qaratilmagan.

O.N.Bulakina davlat va mahalliy hokimiyat idoralarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlab chiqilgan davlat dasturlari samaradorligi va ularning tadbirkorlik salohiyatini oshirishga qo'shgan hissasini baholashda kichik tadbirkorlikning holati va rivojlanishini ifodalovchi integral indekslardan foydalanishning ahamiyati yuqoriligini ta'kidlaydi[26].


P.L.Gluxix ilmiy tadqiqotlarida hududlarda tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish samaradorligi natijaviyligini oshirish bo'yicha integral indekslardan foydalangan holda o'z uslubini taklif etgan[1]. Unda tadbirkorlik salohiyatini shakllantirishning umumiy shart-sharoitlari, shakllanish jarayoni va rivojlantirish bosqichlari integral indekslar asosida yoritilgan. Lekin ushbu tadqiqot ishida kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatiga ta'sir etuvchi ishchanlik muhitini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan, kichik tadbirkorlikning ijtimoiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillardan foydalanilmagan.

Shuni ta'kidlash joizki, biz tomonimizdan taklif etilayotgan ushbu mezon va ko'rsatkichlar tizimi ochiq bo'lib, albatta takomillashtirilishi mumkin. Lekin, fikrimizcha ushbu baholash mezoni ham kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholash bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etishda yaxshi samara beradi. Tadqiqotimiz doirasida hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini natijaviyligini baholashda ularni tavsiflaydigan quyidagi ko'rsatkich va mezonlardan foydalanishni lozim topdik (2-rasm).

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi hudud kichik tadbirkorlik rivojlanishi jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan xodisa va jarayonlar holatini statistik tahlil etishga qaratilgan bo'lib, bunda kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini baholash ko'rsatkichlari, aholining tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro'yobga chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar xususiyatlari, aholining mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyorligi, kichik tadbirkorlik salohiyatiga ta'sir etuvchi ishchanlik muhiti tavsifi, kichik tadbirkorlikning ijtimoiy samaradorligiga ta'sir

etuvchi omillar tavsifi, kichik tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirish xususiyatlarini tadbirkorlik salohiyatidan foydalanish samaradorligi natijaviyligini oshirish bo'yicha integral indekslardan foydalangan holda statistik tahlil asosida miqdor va sifat jihatdan ilmiy asoslangan holda baholash, hududda kichik tadbirkorlikning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.



2- rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini baholash ko'rsatkichlari²

Tahlil va natijalar

Yuqorida tavsiya etilgan hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini aniqlashda mintaqada kichik tadbirkorlik salohiyatini rivojlanganlik darajasini baholash yuzasidan quyidagilarni o'rganishni lozim topdik:

taklif etilgan mezonlar har biri bo'yicha baholash indekslarini aniqlash;

kichik tadbirkorlik subyektlarini baholash ko'rsatkichlarini har biri uchun optimal, ruxsat etilgan, past yoki yuqori baholash parametrlarini belgilash;

kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini baholashda parametrlarning u yoki bu qiymatni qabul qilishiga qarab baholash parametrlarining har biri bo'yicha maksimal va minimal ballarni aniqlash (optimal chegaradagi ko'rsatkich qiymati uchun 2 ball, ruxsat etilgan chegaradagi ko'rsatkich qiymati uchun 1 ball, past yoki yuqori qiymatlar uchun 0 ball qilib belgilanadi);

hudud bo'yicha olingan kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini baholash bo'yicha umumiy indeks ko'rsatkichlari u yoki bu qiymatni qabul qilishiga qarab natijaviylikni baholashning optimal eng yuqori darajasi (baholanadigan indeks ko'rsatkichlari 1,30 dan yuqori bo'lsa, hududda kichik tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki mavjud tadbirkorlar o'z faoliyatlarini samarali davom ettirishlari uchun iqtisodiy shart-sharoitlar yuqori darajada tashkil etilganligi va rivojlanganligini ko'rsatadi), o'rta (0,92 dan 1,30 gacha kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash tizimi samarali faoliyat yuritmaganligi natijasida hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati rivojlanishi yoki shakllanishidagi pasayishni anglatadi), past (0 dan 0,92 gacha kichik tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi deyarli samarasizligi, tadbirkorlik uchun noqulay shart-sharoitlar, aholining kichik tadbirkorlikka nisbatan yomon baho berishi, kichik tadbirkorlikka xizmat qiluvchi infratuzilmalar yaxshi rivojlanmaganligi) darajasini belgilash mumkin;

umumiy indeks ko'rsatkichlari yig'indisiga mos ravishda hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholash ko'rsatkichlarini rasmiylashtirish (9 ballik tizim bo'yicha hisoblab, 8-9 ball hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholashning optimal eng yuqori darajasiga; 4-7 ball natijaviylikni baholashning o'rtacha

(ruxsat etilgan) darajasiga; 4 balldan kam bo'lsa, hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholashning past darajasiga to'g'ri keladi);

umumiy integral indekslar ko'rsatkichlari asosida hudud kichik tadbirkorlik salohiyatini hisoblab chiqish va yuqorida qayd etilgan parametrlar bo'yicha ularni ballar shkalasida baholash;


umumiy integral indekslar tarkibiga kiruvchi kichik tadbirkorlik salohiyatining har bir alohida indeksni hisoblab integral bahosini aniqlash.

Yuqorida taklif etilgan ko'rsatkich va mezonlar asosida hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini umumiy integral indekslar asosida baholash amalga oshirildi. Ushbu uslubiyatga asoslanib kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholashni nazarda tutuvchi to'rtta alohida o'zgarishli ko'rsatkichlar indeksini o'rtacha geometrik usulda hisoblanadigan indekslar jamlanmasidan iborat umumiy integral indeksdan foydalanildi. Ushbu integral indeksni aniqlashda alohida ko'rsatkichlar indeksi hisobot yilini bazis yiliga taqqoslash natijasida hosil bo'lgan indekslar asosida hisoblanadi (3-rasm).

Asosiy ko'rsatkichlar		Ko'rsatkichlarni hisoblash tamoyillari
A-Hudud aholisining tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro'yobga chiqarishga ta'sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar tavsifi I_{g.c.}		
Hududning mahalliy byudjet daromadlari indeksi	A1	$LB R = LBR / LBC$ bu yerda: LBR- mahalliy byudjet daromadlari; LBC- mahalliy byudjet xarajatlari
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar hajmi	A2	$ARK = GRP / Rn$ bu yerda: GRP-YaHM; R _n - aholi soni
Ishsizlik darajasi indeksi	A3	$UR = Un / Pea$ bu yerda: Un-ishsizlar soni; Pea- iqtisodiy faol
Hudud aholisining tadbirkorlik jamoasi bilan aloqadorligi indeksi (o'tkazilgan anketa so'rovnomalari asosida hisoblanadi)	A4	$BCom = Bmk / Gsk$ bu yerda: Bmk -Barqaror rivojlanishga ega tadbirkorlar bilan aloqasi mavjud shaxslar soni; Gsk-umumiy so'rovnoma o'tkazilganlar soni
Shaxsning o'z tadbirkorlik qobiliyatiga baho berish indeksi (o'tkazilgan anketa so'rovnomalari asosida hisoblanadi)	A5	$Sas.ea = Sknw / Gsk$ bu yerda: Sknw-Tadbirkorlik qobiliyatiga yuqori baho beruvchi aholi ulushi; Gsk-umumiy so'rovnoma o'tkazilganlar soni
Tadbirkorlik muvaffaqiyatsizligidan qo'rqish indeksi (o'tkazilgan anketa so'rovnomalari asosida hisoblanadi)	A6	$Bof.f = 100 - of.f n / Gsk$ bu yerda: of.f.n- tadbirkorlik muvaffaqiyatsizligidan qo'rquvchi aholi ulushi; Gsk-umumiy so'rovnoma o'tkazilganlar soni
A- Hudud aholisining tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro'yobga chiqarishga ta'sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar indeksi		
$I_{g.c} = \sqrt[6]{I_{lbr_{1.1}} \times I_{apk_{1.2}} \times I_{ur_{1.3}} \times I_{bc.com_{1.4}} \times I_{sas.e_{1.5}} \times I_{bof.f_{1.6}}}$		

3-rasm. A- Hudud aholisining tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro'yobga chiqarishga ta'sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar indeksi

Olingan tahlil natijalariga e’tibor qaratadigan bo’lsak, viloyat aholisining tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro’yobga chiqarishga ta’sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar indeksi 2017 yilda 1,206 ga teng bo’lgan, ya’ni bu kuzatilayotgan davrda hududda kichik tadbirkorlik subyektlarining tadbirkorlik faoliyatini boshlash va amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoit mavjudligini ko’rsatyapti, 2018 yilda bu indeks ko’rsatkichi 1,132 ga, 2019 yilga kelib ancha pasayish kuzatildi, ya’ni indeks 1,017 ga, 2020 yilda 1,061 natijaga teng bo’ldi (4-rasm). 2021 yilga kelib 2017 yil bilan solishtirganda 0,164 ko’rsatkichga pasayishga uchrab, 2022 yilda esa mos ravishda asta-sekinlik bilan ko’tarilib, 0,144 ko’rsatkichga teng bo’lganligiga guvoh bo’lamiz. Rasm ma’lumotlaridan ko’rish mumkinki, hudud aholisi tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro’yobga chiqarishga ta’sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar indeksida kuchli pasayish 2019 yilga to’g’ri kelgan.



4-rasm. Hudud aholisi tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro’yobga chiqarishga ta’sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar indeksi o’zgarishi³


Ushbu pasayishlarni SOVID-19 pandemiyasi keltirib chiqargan global iqtisodiy inqiroz bilan ham izohlash mumkin. Pandemiya nafaqat insonlar sog’ligiga, shu bilan birga mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham o’z salbiy ta’sirini o’tkazmasdan qolmadi. Buning natijasida viloyatda ko’pgina kichik tadbirkorlik subyektlari o’z faoliyatini to’xtatishiga, ishsizlar sonining oshishiga, aholi xarid qobiliyatining pasayishiga olib keldi. Lekin shunga qaramasdan kuzatilayotgan yillar davomida tadbirkorlik salohiyatiga ta’sir etuvchi omillar deyarli kuchli silkinishga uchramagan, ya’ni eng yuqori va o’rtacha darajalarda aks etgan. Bundan ko’rinadiki, hududda tadbirkorlik salohiyati shakllanishi va uni ro’yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar mavjud.

Asosiy ko'rsatkichlar		Ko'rsatkichlarni hisoblash tamoyillari
B- Aholining mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyorligi $I_{r.e.a}$		
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (1000 ta aholiga nisbatan) indeksi	B1	$SB_{npc} = SB_n / P_n$ bu yerda: SB_n -kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni; P_n -aholi soni
Bitta KT sub'ekti hisobiga to'g'ri keladigan soliq tushumlari hajmi indeksi	B2	$SB_{trf} = Trf / S_{bn}$ bu yerda: Trf -soliq tushumlari hajmi; SB_n -kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni
Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan soliq tushumlari hajmi indeksi	B3	$P_{trf} = Trf / P_n$ bu yerda: Trf - soliq tushumlari hajmi; P_n - aholi soni
Davlat byudjetidan kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun qilingan maqsadli xarajatlar indeksi	B4	$SB_{st.bte} = St.b \exp + targ.exp$ bu yerda: $St.b \exp$ - davlat byudjeti xarajatlari; $targ.exp$ - maqsadli xarajatlar
Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushi	B5	$SB_{govsup} = SB_{sup} / SB_n$ bu yerda: SB_{sup} -qo'llab-quvvatlangan KBXT soni; SB_n -KTning umumiy soni
Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining kredit resurslari, mikrokreditlar bilan ta'minlanganlik darajasi	B6	$SB_{mcr.res} = Mcr.res / SB_n$ bu yerda: $Mcr.res$ -KTni kreditlash hajmi; SB_n -KT sub'ektlari soni
KT sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar (ishlar, xizmatlar)ulushi indeksi	B7	$SB_{in.br.r} = SB_{in.brn} / SB_n$ bu yerda: $In.brn$ -KT sub'ektlari innovatsion tovarlar xajmi; SB_n -KT sub'ektlari soni
KTning texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar xajmi indeksi	B8	$SB_{tmi.mc} = It.m.o.i / I_{mc}$ bu yerda: $It.m.o.i$ - KTning texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar xajmi; I_{mc} -kichik tadbirkorlikning asosiy kapitalga investitsiyalar xajmi
B- Hudud aholisining mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyorligi indeksi		
$(I_{r.e.a})_{I_{r.e.a}} = \sqrt[8]{I_{sb.npc}_{2.1} \cdot I_{sb.trf}_{2.2} \cdot I_{ptrf}_{2.3} \cdot I_{sb.s.bt}_{2.4} \cdot I_{sb.govsup}_{2.5} \cdot I_{sb.mcr.r}_{2.6} \cdot I_{sb.in.br.r}_{2.7} \cdot I_{sb.tmi.mc}_{2.8}}$		

5-rasm. B- Hudud aholisining mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyorligi indeksi ($I_{r.e.a}$)

6-rasmda hudud aholisining mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyorligi indeksi o'zgarishi aks ettirilgan. Oldingi ilmiy tadqiqotlarimizda ushbu indeksni tahlil qilishda oltita ko'rsatkichdan foydalangan bo'lsak, hudud aholisining mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyorligi bilan bog'liq holatlarni chuqur o'rganish natijasida uni takomillashtirib, KT subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan innovatsion tovarlar (ishlar, xizmatlar)ulushi indeksi, hamda KTning texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga qilingan xarajatlar xajmi indeksidan foydalanishni lozim topdik. Statistik kuzatuv amalga oshirilayotgan yillar davomida indeks natijalari barqarorligi deyarli saqlanib qolingan, ya'ni 2017 yilda ushbu indeks ko'rsatkichi 1,137ga, 2018 yilda 1,217ga teng bo'lgan. 2019 yilda

eng yuqori natija qayd etilgan, ya’ni 1,257ga teng bo’lgan, lekin 2020 yilga kelib 0,993, 2021 yilda esa mos ravishda 0,894 ko’rsatkichga tushib ketgan. Bunga sabab, 2020 yilga kelib hududda KBXT subyektlari soni ko’payishi, lekin kichik tadbirkorlik subyektlari aylanmasi hajmi, ular tomonidan to’lanadigan majburiy to’lovlar hajmi kamayishi biz tadqiq etayotgan ma’lumotlar tizimida kuchli pasayishni keltirib chiqargan.



6-rasm. Hudud aholisining mavjud shart-sharoitlar ta’siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishga tayyorligi indeksi o’zgarishi⁴

Bu pasayish 2021 yilda yanayam yaqqolroq sezilgan, ya’ni 0,894 ko’rsatkichga teng bo’lgan. 2022 yilga kelib hudud aholisining mavjud shart-sharoitlar ta’siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishga tayyorligi indeksi o’zgarishi 1,042 ko’rsatkichni tashkil etib, asta-sekinlik bilan barqarorlasha boshlagan.


Asosiy ko’rsatkichlar		Ko’rsatkichlarni hisoblash tamoyillari
C- Kichik tadbirkorlik salohiyatiga ta’sir etuvchi ishchanlik muhiti tavsifi Ibus.act		
KT sub’ektlarining “tugatilish” koeffitsienti	C1	$SBlqd=Lqd/SBn$ bu yerda: Lqd- tugatilgan KT sub’ektlari soni; SBn-umumiy KT sub’ektlari soni
KT sub’ektlarining “barpo etilish” koeffitsienti	C2	$SBnr=Nr/SBN$ bu yerda: Nr- yangidan tashkil etilgan KT sub’ektlari soni; SBn-umumiy KT sub’ektlari soni
Yangidan tashkil etilgan va tugatilgan KT sub’ektlari nisbati koeffitsienti	C3	$SBnr.lqd=Nr/Lqd$ bu yerda: Nr- yangidan tashkil etilgan; Lad- tuaatilaan KT sub’ektlari soni
Aholining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli bilim va ko’nikmalarga egaligi (o’tkazilgan anketa so’rovnomalari)	C4	$BCom=Bmk /Gsk$ bu yerda: Bmk -Barqaror rivojlanishga ega tadbirkorlar bilan aloqasi mavjud shaxslar soni; Gsk- umumiy so’rovnoma o’tkazilganlar soni
O’z tadbirkorligini boshlash istagini bildirgan aholi ulushi (o’tkazilgan anketa so’rovnomalari asosida hisoblanadi)	C5	$SBper.p.st =Sp.e.act/ GSK$ Sp.e.act -yaqin uch yilda tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanishni niyat qilgan aholi ulushi; Gsk-umumiy
C- Kichik tadbirkorlik salohiyatiga ta’sir etuvchi ishchanlik muhitini tavsiflovchi indeks (Ibus.act)		
$Ibus.act = \sqrt[4]{Isbqd_{3,1} \times Isbnr_{3,2} \times Inr.lqd_{3,3} \times Isk.n.s_{3,4} \times Isbper.p.st_{3,5}}$		

7-rasm. S-Kichik tadbirkorlik salohiyatiga ta’sir etuvchi ishchanlik muhitini tavsiflovchi indeks

⁴ O’rganilgan ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

5-rasmdagi kichik tadbirkorlik salohiyatiga ta’sir etuvchi ishchanlik muhitini tavsiflovchi indeks ma’lumotlariga nazar tashlaydigan bo’lsak, 2017 yilda ushbu indeks 1,182 ga teng bo’lib, eng yuqori natijani aks ettirgan, lekin 2018 yilga kelib, 1,009 natijaga tushib ketgan, 2019 yilda o’z barqarorligini saqlab qolishga harakat qilgan, 2020 yilga kelib esa ishchanlik muhiti indeksi hududda 1,078 ga teng bo’lgan.

2021 yilga kelib indeks ko’rsakichida pasayish kuzatilib, 0,914 ga, 2022 yilda mos ravishda 0,978 teng bo’lgan. 2021 va 2022 yillarni hisobga olmaganda kuzatilayotgan barcha yillar davomida aholining kichik tadbirkorlik bilan shug’ullanishga tayyorligi indeksi o’rtacha barqaror holatda bo’lganligini ko’rishimiz mumkin.



8-rasm. Kichik tadbirkorlik salohiyatiga ta’sir etuvchi ishchanlik muhitini tavsiflovchi indeks o’zgarishi⁵


Tadqiqotimiz davomida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish asosida **biz** tomonimizdan taklif etilgan hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatidan samarali foydalanishning natijaviyligini baholash mezonlarini takomillashtirib, beshinchi indeks, ya’ni hudud kichik tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy samaradorligini oshirish indeksini taklif etishni lozim topdik. Bunda kichik tadbirkorlik ijtimoiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tavsifi uchta indeks jamlanmasi yordamida hisob-kitob qilingan(9-rasm).

Asosiy ko’rsatkichlar	Ko’rsatkichlarni hisoblash tamoyillari	
D- Kichik tadbirkorlikning ijtimoiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tavsifi Isoc.eff.		
<i>KT umumiy soniga nisbatan rentabelli KT sub’ektlari ulushi indeksi</i>	C1	<i>SBprf.tab=Pt/Sbn Bu yerda: Pt-rentabelli KT sub’ektlari; Sbn-KT sub’ektlari soni</i>
<i>Umumiy bandlarga nisbatan KT da band bo’lganlar ulushi indeksi</i>	C2	<i>SBnr=Nr/SBN bu yerda: Nr-yangidan tashkil etilgan KT sub’ektlari soni; SBN-umumiy KT sub’ektlari soni</i>
<i>Bitta KT korxonasida band bo’lganlarning o’rtacha soni indeksi</i>	C3	<i>SBbs. Pple=bus.ppl/SBn Bu yerda: bus.ppl -KTda band bo’lganlar soni; SBn-kichik tadbirkorlik sub’ektlari soni (ming kishi hisobida)</i>
D- Hudud kichik tadbirkorlik sub’ektlari ijtimoiy samaradorligini oshirish indeksi (Isoc.eff.)		
$Id. e. p = \sqrt[3]{Isb. prf. tab_{4.1} \times Isb. tp. bp_{4.2} \times Isb. bs. Pple_{4.3}}$		

9-rasm. D- Hudud kichik tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy samaradorligini oshirish indeksi

⁵ O’rganilgan ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

Hudud kichik tadbirkorlik ijtimoiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflovchi indeks o’zgarishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, 2017 yilda 0,981, 2018 yilda barqaror o’sish ko’rsatkichiga ega bo’lib, 1,058 ga teng bo’lgan(10-rasm). 2019 yilga kelib asta-sekinlik bilan pasayish tendentsiyasiga ega bo’la boshlagan (0,971), 2020 hamda 2021 yillarda esa hudud KT ijtimoiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflovchi indeks deyarli kuchli pasayishga uchragan (0,899, 0,809). 2022 yilga kelib 2017 yil darajasigacha ko’tarila boshlagan(0,978).




10-rasm. Kichik tadbirkorlik ijtimoiy samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflovchi indeks o’zgarishi

Asosiy ko’rsatkichlar		Ko’rsatkichlarni hisoblash tamoyillari
A- Hudud aholisining tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro’yobga chiqarishga ta’sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar tavsifi Ig.c.		
Aholi jon boshiga to’g’ri keladigan KT asosiy kapitalga investitsiyalar haimi indeksi	E1	$SBin.m.c.pop.=SBin.m.cap/Pn$ bu yerda: $SBin.m.cap$ -KTning asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi; Pn -aholi soni
Umumiy korxonalar soniga nisbatan KT sub’ektlari ulushi indeksi	E2	$SBgen.ent=SBn/Gen$ bu yerda: SBn -KT sub’ektlari soni; Gen -umumiy korxonalar soni
Kichik tadbirkorlikda band bitta aholi soniga to’g’ri keladigan KT aylanmasi hajmi indeksi	E3	$SBwor.cap.pop.=WK/SBwn$ bu yerda: WK -KT aylanmasi hajmi; $SBwn$ -KTda o’rtacha ish bilan bandlar soni
Bitta kichik tadbirkorlik sub’ekti hisobiga to’g’ri keladigan KT o’rtacha aylanmasi hajmi indeksi	E4	$Sas.ea = Sknw/Gsk$ bu yerda: $Sknw$ -Tadbirkorlik qobiliyatiga yuqori baho beruvchi aholi ulushi; Gsk -umumiy so’rovnoma o’tkazilganlar soni
KT asosiy kapitalga investitsiyalarning bitta kichik tadbirkorlik sub’ektiga to’g’ri keladigan aismi indeksi	E5	$SBin.m.c.o.sb= SBin.m.cap/SBn$ bu yerda: $SBin.m.cap$ - KT asosiy kapitalga investitsiyalar; SBn -KT sub’ektlari soni
D-Hudud kichik tadbirkorlik sub’ektlari salohiyatini rivojlantirish indeksi (Id.e.p)		
$Id.e.p = \sqrt[5]{Isb.i.m.c.p_{5.1} \times Isbgen.ent_{5.2} \times Isb.w.c.pop_{5.3} \times Isb.w.cap_{5.4} \times Isb.i.m.k_{5.5}}$		

11-rasm. A- Hudud aholisining tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro’yobga chiqarishga ta’sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar indeksi

Hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini rivojlantirish indeksi 2017 yilda 1,164, 2018 yilda 1,836, 2019 yilda 1,725 va 2020 yilga kelib esa 0,986 ko’rsatkichga teng bo’lganligini ko’rishimiz mumkin (12-rasm).

2018-2019 yillarda ushbu indekslar barqaror o’sish darajasiga ega bo’lgan, lekin 2020 yilga kelib pasayish kuzatilgan. Inqiroz natijasida davlat tomonidan kichik tadbirkorlik asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining kamayishi kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan




12-rasm. Hudud kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini rivojlantirish indeksi o’zgarishi⁶

mablag’lar miqdori hamda ishlab chiqarish hajmining ham pasayishiga olib keldi. Bu esa o’z navbatida umumiy korxonalar soniga nisbatan KBXT o’rtacha aylanmasi hajmining kamayishini keltirib chiqargan. 2021 va 2022 yillarda hudud kichki tadbirkorlik subyektlari salohiyatini rivojlantirish indeksi asta-sekinlik bilan o’sish tendentsiyasiga ega bo’la boshlagan. Lekin shunday bo’lsada, hududda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish indeksi barqaror va o’rta holatda saqlanib qolmoqda.

$$Isbe.ef = \sqrt[4]{Ig.c_1 \times Ir.e_2 \times Ib.a_3 \times Isoc.eff_4 \times Id.e_5}$$

13-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholashning umumiy indeksi

Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholovchi umumiy indeksga e’tibor qaratadigan bo’lsak, statistik kuzatuv olib borilayotgan yillar davomida indeks natijalari deyarli barqaror holatda saqlanib qolgan (14-rasm).



14-rasm. Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholashning umumiy indeksi o’zgarishi⁷

2017-yilda umumiy indeks natijalari 1,188 ko’rsatkichga teng bo’lgan bo’lsa, 2018-yilda 1,272 ko’rsatkichni tashkil etib, kuzatilayotgan yillar davomidagi barqaror o’sish holatini aks ettirgan. 2019 yilga kelib ushbu holat pasayish tendentsiyasiga ega bo’lib, 1,087 ga, 2020

⁶ O’rganilgan ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

⁷ O’rganilgan ma’lumotlar asosida muallif hisob-kitobi

yilda esa mos ravishda 1,031 ko'rsatkichga teng bo'lgan. Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati natijaviyligini baholashning umumiy indeksi 2021 yilda kuzatilayotgan yillar davomidagi eng past ko'rsatkichga ega bo'lgan (0,959). Bu esa 2018 yil bilan solishtirganda - 0,313 ko'rsatkichga past ekanligini ko'rsatadi. 2022-yilda esa 1,001 ko'rsatkichga teng bo'lgan.

2021 yilni hisobga olmaganda hududda barqaror va o'rtacha barqaror holat aks etgan. Bunga sabab yillar davomida kichik tadbirkorlar soni oshishi sotuv hajmi ko'payishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi oshishiga olib kelgan. Yuqorida keltirilgan mezonlar asosida qabul qilingan ko'rsatkichlar qiymati bo'yicha Surxondaryo viloyatining kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati rivojlanish darajasi o'rganilgan yillar bo'yicha baholab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Surxondaryo viloyati bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati rivojlanish darajasini baholash ko'rsatkichi⁸

Mezonlar	Ko'rsatkich	2017		2018		2019		2020		2021		2022		
		Ko'rsatkich qiymatlari	Ballar soni	Ko'rsatkich qiymatlari	Ballar soni	Ko'rsatkich qiymatlari	Ballar soni	Ko'rsatkich qiymatlari	Ballar soni	Ko'rsatkich qiymatlari	Ballar soni	Ko'rsatkich qiymatlari	Ballar soni	
1	Hudud aholisining tadbirkorlik faolligi va salohiyatini ro'yobga chiqarishga ta'sir etuvchi omillar va umumiy shart-sharoitlar tavsifi	Klg.c	1.206	1	1.132	1	1.017	1	1.061	1	1,021	1	1,010	1
2	Hudud aholisining mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga tayyorligi	Klr.e.a	1.137	1	1.217	1	1.257	1	0.993	1	0,894	0	1,042	1
3	Kichik tadbirkorlik salohiyatiga ta'sir etuvchi ishchanlik muhiti tavsifi	Klbus.act	1.182	1	1.009	1	1.127	1	1.078	1	0,969	1	0,857	0
4	Kichik tadbirkorlik ijtimoiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tavsifi	KIsoc.eff.	0.981	1	1.058	1	0.971	1	0.899	0	0.809	0	0.971	1
5	Kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini rivojlantirish xususiyatlari	KIsbe.ef	1.164	1	1.836	2	1.725	2	0.986	1	1,135	1	1,153	1
Umumiy koeffitsientlar			1.171	1	1.313	2	1.255	1	1.028	1	0,959	1	1.001	1
Ballar soni				6		8		7		5		4		5

Kuzatilayotgan yillar davomida 2018 yilda yuqori 8 ballik natijaga erishilgan. Eng past 4 ballik natija 2021 yilga to'g'ri kelgan. Ayniqsa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimining faollashtirilishi, kuzatilayotgan yillar davomida tadbirkorlik salohiyati natijaviyligini baholovchi umumiy indeks ko'rsatkichlari oshib borishini ta'minlagan.

Xulosalar va takliflar

Demak, yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib xulosa qiladigan bo’lsak, hududda tadbirkorlik salohiyatini shakllantirish, kichik tadbirkorlik subyektlari sonini oshirishda kerakli bo’lgan shart-sharoitlar o’rtacha holatda deb izoh berishimiz mumkin. Ushbu uslubiyatning o’ziga xos jihatlarini quyidagilar bilan izohlash mumkin:

mamlakat yoki uning alohida hududlari kichik tadbirkorlik salohiyatini yuzaga chiqarish va oshirishda ushbu uslubiyotdan keng foydalanish mumkinligi;

kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyati holatini keng qamrovli baholay olish imkoniyati;

turli viloyatlar, tumanlar tadbirkorlik salohiyati rivojlanish dinamikasini taqqoslama tahlil qilish;

hudud tadbirkorlik salohiyatini taraqqiy ettirishga ajratilgan davlat byudjeti mablag’larining to’g’ri yo’naltirilganligini aniqlash imkoniyati.

Yakuniy natija ko’rsatkichlari va integral indeksni kichik tadbirkorlikni rivojlantirish bo’yicha hududning rejalashtirilgan ijtimoiy ahamiyatga ega natijalariga erishishini baholash manbasi sifatida qarash mumkin.

Ushbu uslubiyat kichik tadbirkorlik subyektlari salohiyatini qo’llab-quvvatlash va rivojlantirishga yo’naltirilgan maqsad va vazifalariga erishishning natijaviyligi va samaradorligini doimiy nazorat qilish imkoniyatini beradi.

Albatta, viloyat iqtisodiyotining kichik tadbirkorlikka yo’naltirilganligi, kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati qanday rivojlanayotganligiga qarab, tadbirkorlik salohiyatini rivojlanish darajasini baholash bo’yicha taklif etilayotgan mezon va ko’rsatkichlarga o’zgartirish kiritib, qo’shimcha mezon va baholash ko’rsatkichlari joriy etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Глухих П.Л. Социально-экономическая оценка реализации предпринимательского потенциала в муниципальных образованиях. Автореферат дисс. на соис. уч. степ. канд. экон наук. Екатеринбург 2013

2. Robert E. Lucas «On the mechanics of economic development» Journal of Monetary Economics 22 (1988) 3-42. North-Holland.

3. Romer P.M. Increasing Returns and Long-Run Growth// The Journal of Political Economy, October, 1986. — pp. 1002—1037.

4. Portes, A., Guarnizo, L. E., & Haller, W. J. (2002, April). Transnational entrepreneurs: An alternative form of immigrant economic adaptation. American Sociological Review, 67(2), 278–298.;

5. Чепуренко А.Ю. Малое предпринимательство в социальном контексте / – М.: Наука, 2004. – 480 с.

6. Егорихина С. Ю. Предпринимательский потенциал населения региона// Экономика региона: проблемы и перспективы развития. № 1 (53). 2011. –42–50 с.

7. Салихов Б. В., Самойлов В. О. Частная собственность как социально-экономическая основа реализации предпринимательского потенциала// Финансы и кредит. № 15. 2006.

8. Сергиенко Я. В. и др. Предпринимательский потенциал: опыт и перспективы развития в России// Вестн. ОРЕЛГИЭТ. № 20. 2012. –3–8 с.
http://old.orelgiet.ru/monah/1_20_11_12.pdf.

9. Фияксель Э.А., Шубнякова Н.Г. и др. Эволюция понятия “предпринимательский потенциал”. Журнал Инновации № 9(215),2016.-48с.;
10. Доронина И.Э. Управление развитием предпринимательского потенциала мезоуровня. Дис.уч.ст.к.э.н. -М.: 2018.-72-78 с.
11. Чепляева И. Е. Предпринимательский потенциал: проблемы формирования и использования в российской экономике. Дис.к. э. н.: 08.00.07. Саратов, 1999. – 168 с.
12. Пономаров О. Системная модель предпринимателя и предпринимательской деятельности. Дис. ... к. э. н. -Москва, 2020. – 122 с.
13. Аршакуни К. Эконометрические моделирование генезиса и динамики малых новых предприятий. Дис... к.э.н.-Москва,2020.–72с.
14. Абдуллаев Ё., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство. – Т.: Иқтисод-молия, 2008. – 339 с.
15. Рузметов Б. Оптимизационные задачи многоагрегатных комплексов. Модели, методы решения, программные модули. - Т.: Фан, 2010.
16. Do‘stjanov T. Kichik biznesning katta imkoniyatlari. – Urganch.: Xorazm, 1997.
17. Югай А.Б. Моделирование процессов управления развитием производства предприятий малого бизнеса.: Иқт.фан. номз. дисс.автореф. –Т.: 2004.–22 б.
18. Шодиев Т.Ш., Ходиев Б.Ю.и др. Эконометрика. учеб. пособие. – Т.: “ Шарк”. 1999 -240 с
19. Xatamov O., Toshaliyeva S. Surxondaryo viloyati kichik tadbirkorlik salohiyati natijaviyligini ijtimoiy-iqtisodiy baholash usullari va mezonlari //Iqtisodiyot va ta’lim. – 2021. – №. 4. – B. 215-224. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/159>
20. Toshaliyeva, S. Hududiy kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish istiqbollari prognozlash // Iqtisodiyot va ta’lim. – 2022. – №. 3 (23). – B. 220-227. https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a33; <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/530>
21. Toshaliyeva S.T. Economic and statistical analysis of the development of small business potential in Surkhandarya region //Ekonomika i predprinimatelstvo. – 2021. – №. 4. – S. 778-782.
22. Toshaliyeva S.T. The concept of «business potential»: essence, economic significance //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – P. 39-42.
23. Toshaliyeva S.T. Kichik tadbirkorlik ishlab chiqarish hajmini baholashda dinamik ekonometrik modellardan foydalanish // “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistik tahlilini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami (2022 yil 27 may). -2022. – B. 307-311. https://instat.uz/2022/kon_%2027.06.2022.pdf.
24. Кремин А.Е., Мазилев Е.А. Оценка влияния малого бизнеса на социально-экономическое развитие регионов // Вопросы территориального развития. 2018. № 1 (41). DOI: 10.15838/tdi.2018.2.41.2
25. Лускатова О.В., Гленкова Е.О., Шалова В.А. Методический подход к экономической оценке влияния предпринимательства на динамику развития региона // Фундамент. исслед. 2013.№ 2–3. С. 594–598.
26. Булакина О.Н. Методика комплексной оценки предпринимательского потенциала муниципального образования // Известия ИГЭА. 2009. № 4 (66). С. 63-67.